



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

A.G'.Suyunov

Erkin tadqiqotchi

INTEGRATIV YONDASHUVNING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va uning tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti va ilmiy pedagogik tushunchalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik, faol pedagogik jamoa, mahorat, yo'nalish, tamoyil.

Аннотация. В данной статье описывается сущность интегративного подхода и его принципы. Также отмечается развитие теории интеграции в образовательном процессе и научных педагогических концепций.

Ключевые слова: интеграция, интегративный подход, согласованность, межпредметная связь, взаимодействие, активный педагогический коллектив, мастерство, направленность, принцип.

Abstract. This article describes the essence of the integrative approach and its principles. Also, the development of the theory of integration in the educational process and scientific pedagogical concepts are noted.

Key words: integration, integrative approach, coherence, inter-subject communication, interaction, active pedagogical team, skill, direction, principle.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ilm-fan sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida innovatsion, ijodiy, akmeologik, andragogik va tizimli



yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvdan ko‘proq foydalanilmoqda. Bu yo‘nalishning istiqbolli tomoni shundaki, muayyan bir tizimni taraqqiyot g‘oyalari bilan integratsiyalashtiriladi. Aslida integratsiyali ta’limni ichki mantiqiy bog‘liqlik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib amalga oshirish zarur. Endilikda ta’lim falsafasida chegaradosh fanlarning tabiiy moslashuvigina emas, balki kichik kontinental (bir guruhga kiruvchi fanlarning boshqa guruh fanlari bilan) moslashuvi ham o‘zlashtirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida integratsiya muammosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limda integratsiya deganda biz yangi faol pedagogik jamoada ijodiy o‘shishni, ta’lim oluvchilarga foydali hamda ularning ongiga singdirishning qulay usullarini qo‘llash mahoratini tushunamiz. Ta’lim tizimiga integratsiyani kiritish ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi taraqqiyoti va ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji asosiy va muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Dunyo miqyosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda integrativ pedagogikadan foydalanish, o‘qitish jarayonlarining integratsiyalashuviga kompleks yondashuvni tatbiq etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, mavzular va fanlararo integratsiyani qo‘llash asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish, konsentrizm tamoyili asosida o‘quv materiallarini tizimlashtirishning modullashgan integratsiyasini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalotssi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar), psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina), metodist olimlarning (V.G.Goretskiy, Y.M.Kolyagin, M.R.Lvov, N.N.Svetlovskaya) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Hozirgi paytda integratsiyali pedagogika fanini o‘rganish masalasida turlicha qarashlar mavjud. Bir qator ishlar fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangan (G.N.Akvileva, G.V. Baltyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, R.G.Matyushova).

Respublikamizda fanlararo aloqadorlik va integratsion o‘qitish jarayonlarini tashkil etish masalalari bo‘yicha R.Mavlonova, R.Safarova, E.Turdiqulov, M.Mirqosimova, A.Musurmonov, P.Musayev, A. Choriyev, X.A.Abduraxmonova, R.Burxonov, T.Nuriddinov kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotlarda fanlararo aloqadorlikning turli yo‘nalishlari va tamoyillari,



ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan J.Gilbert, F.Cochran, J.W.Gray, M.Trott, R.J.Gaylordlarning ishlarida integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda pedagog kadrlarni tayyorlashning turli jihatlari, ya'ni innovatsion va pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, integrativ muhitni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hozirgi davr pedagogik amaliyotida fanlararo bog'lanish asosida ta'limni integratsiyalash yo'lidagi izlanishlar davom etmoqda. Bu vazifa g'oyat murakkab va ayni paytda katta samara beradi.

Ayni damda, ta'lim jarayonlarini integrativ tashkil etish, integratsion ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, konsentrlangan va modulli ta'lim talablari asosida o'qitish mazmuni va metodikasini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Integratsiyali pedagogika fanini o'rganish quyidagi tamoyillarga amal qilinadi: ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish; ta'lim jarayoniga doir ilmlarni tizimli integratsiyalash; ta'lim oluvchi shaxsi shakllanishini fanga oid bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish; ta'lim oluvchilarda fikrlash yo'nalishlarida fanga oid bilimlar ta'sirining ustuvorligi.

Integratsiya – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Pedagog Yan Amos Komenskiy bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa bog'liq holda o'rganilishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir [M.M.Mirqosimova. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 yil №1). 69-80-b]. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq, integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab



o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Integratsion yondashuv o'rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi.

Integratsiyalashgan ta'limda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- tizimli bilim berish tamoyili, ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyili, pedagogik hamkorlikka tayanish tamoyili;
- integratsiyaning differensiya bilan uzviyligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- integratsiyalashgan ta'limning ta'lim beruvchi shaxsiga qaratilganligi;
- ta'lim oluvchilarni faollashtirishga va komil insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xulosa shuki, integratsiyalashgan texnologiyaning didaktik xususiyatlari (ta'lim oluvchi shaxsiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining boshqarish, konsentrizm, hamkorlik, ijodkorlik) o'quv fani mavzusi, tayanch tushuncha va bilimlar, ko'nikma, malakaviy kompetensiyalarni ta'lim maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bilan ichki integratsiyasi dinamikligini ta'minlashga erishish orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, integratsiyalashgan o'qitish orqali ta'lim samaradorligini baholash mezonlari (tayanch tushunchalarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish, muammoli vaziyatlar va uyg'unlashgan usullarni qo'llash, mavzular bo'yicha tavsiya qilingan ilmiy manbalar bo'yicha ixcham, mukammal ma'lumotlar majmuasining ifodalanishi) fanlarning vertikal va gorizontal integratsiyasini qo'llash asosida ishlab chiqish, ta'limda integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkil etishga doir didaktik modelning metodik komponenti o'quv harakatlari izchilligining (tayyorlov, loyihalash, amalga oshiruvchi, yakuniy) integrallashgan dars tuzilmasi (adaptiv, amaliy, umumlashtirish, refleksiya) bilan qayta aloqasini intensivlash darajasiga muvofiq takomillashtirish, integratsiyalashgan ta'lim natijalariga erishishning mezonlari va parametrlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35. 21.
2. Mirqosimova M.M. Masofaviy ta‘lim sharoitida o‘quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 yil №1). 69-80-b.
3. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – Arzamas, 2020.